



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2025 yil 17-yanvar, № 12 (8907)

JUMA

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## HUDUDLARNING INVESTITSIYA VA EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksport hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizdagi ochiqlik, kuchli investitsiya siyosati natijasida iqtisodiyot barqaror o'sib kelyapti. Xususan, 2024-yilda yalpi ichki mahsulot 6,5 foizga oshib, 115 milliard dollarga yetdi. Xorijiy investitsiya 1,6 barobar o'sib, qariyb 35 milliard dollarni tashkil qildi. Qiymati 10 milliard dollarlik 242 ta yirik va o'rta loyiha ishga tushdi. Eksport lik bor 27 milliard dollarga yetdi.

O'tgan yili tog'-kon, neft-gaz, kimyo, qishloq xo'jaligi sohalariida investitsiya 2 karra oshgan. 50 ta tumanga 100 million dollardan ko'p sarmoya kirib kelgan.

Tanqidiy ruhdagi o'tgan yilgi yig'ilishda sohadagi qo'liqatlar atroficha tahlil qilindi.

To'qimachilik sanoati, "O'ztransgaz", "O'zmetkombinat", "O'zsvu'ta'minot" tizimida investitsiya ko'rsatkichlari pasaygan. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi, Qishloq xo'jaligi, Raqamli texnologiyalar, Transport, Qurilish, Sog'liqni saqlash, Sport, Madaniyat, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklari olib kelgan investitsiya va grantlar imkoniyatga yarasha emas.

Ayrim tuman hokimlari investitsiya va eksport masalasini o'z holiga tashlab bo'yigani ko'rsatib o'tildi. Jumladan, Beruniy, Qorao'zak, Qo'ng'iro't, Peshku, Yangiobod, Qamashi, Xonqa, Shovot, Romitan, Dehqonobod, Mirishkor, Chiroqchi, Narpay, Nurobod va Guliston tumanlari hamda Ohangaron shahri hokimlariga hayfsan e'lon qilindi.

Faoliyatida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ygani uchun Sirdaryo viloyati hokimi Akmaljon Mahmudaliyev lavozimidan ozod etildi.

Yig'ilishda investitsiya va eksport bo'yicha bu yilgi asosiy vazifalar belgilandi.

Avvalo, bu masala hududlar kesimida ko'rib chiqildi. 27 ta tumanda investitsiya hajmi 200 million dollardan oshishi hisob-kitob qilingan. Lekin 10 ta tumanda reja 40 million dollarga ham yetmaydi. Mutasaddilarga ushbu tumanlarda yangi loyihalarni shakllantirib, investitsiyani ko'paytirish bo'yicha topshiriq berildi.

Mablag'larning samaradorligiga alohida to'xtalib o'tildi. Masalan, so'nggi yetti yilda kiritilgan 120 milliard dollar investitsiya hisobiga 6 mingdan ortiq korxonalar ishga tushgan. Tahlil qilinsa, har 1 ming dollar investitsiya yiliga o'rtacha 530 dollar qo'shilgan qiymat yaratyapti. Bu ko'rsatkich tog'-kon sanoatida 700 dollarga yetgan.

Lekin neft-gaz, metallurgiya va qurilish materiallari sohalariida investitsiya samaradorligi nisbatan past. Hududlardan esa Sirdaryo, Buxoro va Qoraqalpog'istonda shunday holat.

Yangi ochilgan 92 ta korxonada uskunalar ishlatilmay turgani uchun kreditlar qaytishi kechikayapti. 105 ta tadbirkor olib kelgan uskunalar bo'xona omborlarida turibdi.

Prezident investitsiyaning samaradorligini oshirish hudud va tarmoq rahbarlarining asosiy vazifasi bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Bu iqtisodiyotimiz o'sishiga katta turtki beradi. Kafolati xarid hisobiga, juda ko'p yangi ish

o'rinlari yaratiladi, valyuta tejaladi va yondosh sohalar rivojlanadi. Buni hokimlar yaxshi tushunib, har bir loyihaning "ichiga kirib", ishini unumli tashkil qilish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tadbirkorlar ishtirokida yarmarkalar o'tkazib, yangi mahsulotlarni o'zlashtirish, yirik investitsiya loyihalari mahalliy mahsulotlar ulushini ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Mamlakatimizda tadbirkorlar sinfi kengayib, xalqaro doiraga chiqmoqda. Ilg'or korxonalarimiz chet eldan to'g'ridan-to'g'ri mablag' olib kelishni boshladi. Buni qo'llab-quvvatlash maqsadida, Prezident Farmoni bilan Savdo-sanoat palatasida Tadbirkorlarga tashqi moliya bozorlariga chiqishga ko'maklashish markazi tashkil qilindi. Endi bundan foydalanib, ko'proq tadbirkorlar xorijdan mablag' jalb qilishga o'rgatilishi aytiladi.

Bu yil xalqaro moliya institutlari hisobidan 5 milliard 200 million dollarlik ishlar rejalashtirilgan. Ularni o'z vaqtida amalga oshirish uchun Bosh vazir boshchiligidagi favqulodda shtab tashkil qilinishi belgilandi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan 1 milliard 100 million dollar, Islom taraqqiyot banki bilan 1 milliard dollarlik loyihalar ko'zda tutilgan. Mutasaddilarga ushbu banklar bilan davlat kafolati bilan loyihalarni ko'paytirish, mablag' jalb qilishda tadbirkorlarga ko'maklashish topshirildi.

Investitsiya samaradorligining ko'rsatkichlaridan biri — eksport. Masalan, erkin iqtisodiy zonalardagi korxonalar kiritgan sarmoyasiga qarab imtiyoz olyapti. Bu tannarxni

pasaytirish, eksportga chiqishga xizmat qilishi kerak.

O'tgan yili 22 ta erkin iqtisodiy zonadagi 589 ta korxonada 42 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqargan. Lekin tovarlarning atigi 18 foizi tashqi bozorlarga sotilgan, 372 ta korxonada umumiy eksport qilmagan. Shu bois endi faqat eksportga ishlaydigan erkin iqtisodiy zonalarda tashkil etilishi ta'kidlandi. Ularda xorijiy brendlar bilan yuqori qiymatli, tashqi bozorlarda talabir mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shularidan birinchisi Namangan viloyatida, 30 gektar maydonda to'qimachilik yo'nalishida tashkil etiladi.

Yana bir yangi yondashuv — o'tgan yili 12 ta texnopark xorijiy korxonalar boshqaruviga berildi. Hozircha ularga 2,5 milliard dollarlik 27 ta loyiha joylashtirilgan. Bu tajribani kengaytirib, xorijiy kompaniyalar ishtirokida yana bir nechta texnoparklar tashkil qilish taklifi bildirildi.

Bu yil eksportni 30 milliard dollardan oshirish mo'ljallanmoqda. Masalan, yurtimizda xomashyosi bo'lgan to'qimachilik, elektrotexnika kabi tarmoqlarda eksportni 2-3 karra ko'paytirish imkoniyati bor.

Shu bois bu ikkita drayver tarmoqni rivojlantirish, eksportga ishlayotgan korxonalar har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralarini ko'riladi.

Xususan, eksportchilarni aylanma mablag' bilan ta'minlash uchun alohida faktoring tashkiloti ochilib, unga 100 million dollar ajratiladi. Korxonalar xalqaro sertifikat talablariga moslashtirish xarajatlarining 20 ming dollargacha

qismi qoplab beriladi. Rivojlanish va tadqiqot markazlari (R&D) uchun olib kelinadigan laboratoriya jihozlari bo'xona bo'ylaridan ozod qilinadi. Xalqaro marketpleyslar orqali mahalliy mahsulotlarni targ'ib qilish uchun 2 million dollar yo'naltiriladi.

Mutasaddilarga tashqi bozorlardagi imkoniyatni tahlil qilib, uch yillik eksport strategiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Paxta yetishtirish va qayta ishlashda ham qo'shimcha bozor mexanizmlari joriy qilinadi. Shu yildan boshlab klasterlar paxtaga talabi va narx taklifini birjaga qo'yadi, fermerlar esa o'ziga ma'qulini tanlab, fyuchers shartnomasini tuzadi. Imtiyozli kredit olmay, o'zi paxta yetishtirgan fermerlarga birjada sotgan paxtasining 10 foizi miqdorida subsidiya beriladi. Imtiyozli kreditni 31-dekabrgacha to'liq qaytargan fermerlarga kreditning 4 foizi qaytarib beriladi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi tomorqa egalari mahalla banklariga mijoz bo'ladi.

Yig'ilish yakunida davlatimiz rahbari jahonda investitsiya va bozorlar uchun raqobat keskinligini yana bir bor ta'kidlab, mutasaddilarga ishchanlik va natijadorlikni oshirish talabini qo'yd. Bu borada nazorat va so'rov qattiq bo'lishi ko'rsatib o'tildi.

Bosh vazirga bu yilgi 42 milliard dollar xorijiy investitsiya bo'yicha oyma-oy reja tasdiqlab, ijrosini ta'minlash topshirildi.

Yig'ilishda vazirlar, tarmoq rahbarlari va hokimlarning axboroti eshitildi.

O'z.A.

Davlat dasturi loyihasi — muhokamada

## INSON FAROVONLIGIGA YO'NALTIRILGAN VAZIFALAR

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni loyihasi ayni paytda keng jamoatchilik tomonidan chuqur o'rganilmoqda va muhokama qilinmoqda. Bu muhim jarayonda deputatlar, xalqimiz o'z takliflari bilan faol ishtirok etyapti.

Davlat rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan hujjatda inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, yaqin kelajakda amalga oshirilajak ishlohtlarning tub maqsadlarini qamragan ustuvor yo'nalishlar o'rin olgan. Jumladan, strategiyaning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amaliy chora-tadbirlar, ishlab chiqilish lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati va maqsadli ko'rsatkichlar aks etmoqda.

Davlat dasturlari loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi bejiz emas. Zero, xalqimiz takliflari asosida qabul qilingan dasturiy hujjatlar faqat inson manfaatlarini, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash, odamlarning turmush sharoitini yaxshilash, aholing orzu istaklarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturi loyihasi bugungi kunda Qonunchilik palatasidagi

siyosiy partiyalar fraksiyalari, qo'mitalar yig'ilishlarida qizg'in muhokama etilmoqda. Har bir qo'mita o'z yo'nalishidan kelib chiqib, uni yanada takomillashtirish bo'yicha qator takliflar berishyapti. Mazkur jarayonda deputatlar, Devon xodimlari ham faol qatnashmoqda. Bu esa hujjat yanada pishiq va puxta bo'lishiga xizmat qiladi.

Dasturda 2025-yilda mamlakatni rivojlantirishning bir qator ustuvor yo'nalishlari belgilanyapti. Xususan, mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarni ko'kalimzorlashtirish darajasini oshirish, yashash uchun ekologik qulay va farovon muhit yaratish, aholi salomatligini mustahkamlash kabi ustuvor vazifalarning belgilanishi ekologik xavfsizlikni ta'minlagan holda fuqarolarimizning salomatligini asrashga turtki beradi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

## KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MASALASI — DOIMIY E'TIBORDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi hamda Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi, shuningdek, Kambag'allikni qisqartirish borasidagi ishlarining holatini o'rganish bo'yicha ishchi guruh hamkorligida "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini samarali amalga oshirish istiqbollari" mavzuida seminar o'tkazildi.

Ta'kidlanganidek, yurtimizda kambag'allik bilan kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Inson resurslarini rivojlantirish, mehnat bozorini isloh qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash va turmush sharoitini yaxshilash bo'yicha salmoqli ishlar bajarildi.

Bu borada qisqa va uzoq muddatli mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlarning

amalga oshirilishi natijasida kambag'allik darajasini 2021-yildagi 17 foizdan 2023-yilda 11 foizga, 2024-yilda esa 9,4 foizga kamaytirishga erishildi. 2025-yil yakuniga qadar mazkur ko'rsatkichni 6 foizga tushirish reja qilingan. 2026-yilgacha mamlakatda kambag'allikni 2 barobar, 2030-yilgacha esa keskin qisqartirish vazifasi qo'yilgan.

Senat qo'mitasida

## SOHADA TIZIMLI NAZORAT ZARUR



Senatning Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasida bo'lib o'tgan majlisda dastlab "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi qonun muhokama etildi.

Ushbu qonun mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sohani tizimli ravishda nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Unda oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi asosiy tushunchalar, jumladan, "oziq-ovqat xavfsizligi", "davlat zaxirasi", "ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari", "oziq-ovqat balans", "oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligi" tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilmoqda.

Bundan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligi sohasini tartibga solish mexanizmlari, vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlari, oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha asosiy tamoyillar, sohada davlat siyosatining yo'nalishlari aniqlik bilan belgilanayotir.

Majlisda bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatining holatini o'rganish masalasi ham muhokama qilindi. Unda keyingi yillarda bolalar sog'ligini saqlash, ularga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini yanada yaxshilash borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotgani, xususan, sohaning moddiy-texnika ta'minoti yaxshilanib, bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanayotgani alohida qayd etildi.

Shu bilan birga sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar, muammo va kamchiliklar ham mavjud. Ularni bartaraf qilish va kelgusidagi vazifalarni o'z vaqtida bajarish maqsadida qo'mita huzurida mas'ul vazirlik va idoralar vakillaridan iborat tarkibda ishchi guruhi tuzildi hamda bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatining holatini o'rganish, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash rejalashtirildi. Ushbu masalani o'rganish davomida ishchi guruh a'zolariga amaldagi qonunlar, Prezident tomonidan qabul qilingan Farmon va qarorlarning ijrosiga e'tibor qaratish hamda o'rganilishi lozim bo'lgan vazifalar yuzasidan tahliliy ma'lumotlar tayyorlash zarurligi bo'yicha tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston — BAA:

## O'ZARO SAVDO HAJMI 10 BAROBAR KO'PAYADI

Mamlakatimiz va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasida do'stlik hamda ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari, jumladan, siyosat, savdo-iqtisodiyot, investitsiya, innovatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa ustuvor sohalarni yanada rivojlantirish borasida salmoqli sa'y-harakatlar olib borilyapti. Zotan, ikki xalqni mushtarak tarixiy ildizlar, o'xshash an'ana va qadriyatlar, muqaddas islom dini chambarchas bog'lab turadi.

Munosabat

Shu ma'noda Prezidentimizning Birlashgan Arab Amirliklariga tashrifi ikki tomonlama hamkorliklar tarixida yangi sahifa ochdi. Munosabatlari strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. So'nggi yetti yilda davlatlar o'rtasida

to'var ayirboshlash va xizmatlar hajmi 5,4 barobarga oshib 591 mln. dollarga yetdi, import 367 mln. dollarni va eksport 224 mln. dollarni tashkil etdi. BAA ishtirokidagi korxonalarining soni 3 taga, kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 1,5 mlrd. dollarga yetdi. To'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar soni ko'paydi, ikkala mamlakat fuqarolariga qulaylik yaratish

## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



Ma'lumotlarga ko'ra o'tgan yilning yanvar — noyabr oylarida O'zbekiston 2,65 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan.

Mazkur ko'rsatkich umumiy eksportning 10,9 foizini tashkil etadi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibi quyidagicha (AQSH dollarida):

- kalava ip — 1,15 mlrd.;
- tayyor to'qimachilik mahsulotlari — 1,04 mlrd.;
- trikotaj mato — 271,4 mln.;
- gazlamalar — 134,9 mln.;
- paypoq mahsulotlari — 38,2 mln.

Manba: Statistika agentligi.

Fakt va raqamlar



O'zbekiston – BAA:

O'ZARO SAVDO HAJMI 10 BAROBAR KO'PAYADI

Davlatimiz rahbari yurtimizda kam ug'roddir rivojlanish bo'yicha uzoq muddatli strategiya va "yashil" moliyalashtirish milliy dasturi ishlab chiqilgani, investitsiya loyihalarida "yashil" komponentlar kelgusi besh yilka 50 foizgacha ko'paytirilishini, Markaziy Osiyoning quyosh, suv, shamol energiyasi hamda "yashil" vorodrodi ishlab chiqarish bo'yicha ulkan salohiyatini birgalikda rivojlantirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi. O'tgan qisqa

vaqt ichida qadimgi Buyuk Ipak yo'lini o'zaro energetik bog'liqlik orqali tiklash yo'lida ham ilk qadamlar tashlangani, yaqinda "COP-29" sammiti doirasida Qozog'iston va Ozarbayjon bilan imzolangan ko'p tomonlama bitim Yevropaga "yashil" energiyani eksport qilish imkoniyatini berishi qayd etildi. Ikki davlat yetakchilari o'zaro iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini – sun'iy intellekt, raqamlashtirish, "yashil"

energetika, shaharsozlik va infratuzilma, turizm, xususiy biznes kabi olitita asosiy yo'nalishni belgilab oldilar. Har bir ustuvor soha bo'yicha alohida ishchi guruhlarni tashkil etishga kelishildi. Tomonlar 2025 – 2027-yillarni "O'zbekiston va BAA o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yangi davri" deb e'lon qilish taklifini qo'llab-quvvatladi. 2030-yilga qadar o'zaro savdo hajmini 10 barobarga ko'paytirish va investitsiya portfelini 50 mlrd.

dollarga yetkazishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish asosiy vazifa etib belgilandi. Davlatimiz rahbari Muhammad bin Zoid nomidagi universitet bilan hamkorlikda yuqori malakali kadrlar tayyorlash va sun'iy intellekt sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish bo'yicha qo'shma dasturni ishga tushirishni taklif etdi. Muzokaralar chog'ida bo'lajak oliy darajadagi tadbirlarga, jumladan, joriy yilda Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Markaziy

Osiyo – Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" muloqotining ikkinchi sammitiga tayyorgarlik masalalari muhokama qilindi. Tashrif doirasida BAAning yetakchi kompaniyalari bilan yangi, asosan, yuqori texnologik tarmoqlarda loyihalar portfeli shakllantirildi. **Kobul TURSUNOV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.**

INSON FAROVONLIGIGA YO'NALTIRILGAN VAZIFALAR

Hujjatda tabiiy resurslarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ko'paytirish va kelajak avlod uchun saqlash, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy etishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirish kabi muhim vazifalar ham o'rin olgan.

barvaqt aniqlash va ular bilan kasallanish holatlarini keskin kamaytirishga ham alohida urg'u berilgan. Jumladan, joriy yilda profilaktik ko'riklar jadvallini tasdiqlagan holda 18 – 40 yoshli 12,7 mln. nafar kishini profilaktik ko'rikdan o'tkazish, 7,1 mln. nafar 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida eng ko'p uchraydigan yurak-qon tomir, qandli diabet, o'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari xavfini aniqlash maqsadida profilaktik ko'riklarni o'tkazish hamda kasallik aniqlangan fuqarolarni individual sog'lomlashtirish choralarini ko'rish ta'minlanadi.

Mamlakatimizning ijtimoiy davlat prinsipidan kelib chiqib, dastur loyihasida ijtimoiy siyosatga, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, yoshlar, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan tahsinga molik. Xususan, respublikaning har bir tumanida (shahrida) bosqichma-bosqich inklyuziv ta'lim talablariga javob beradigan kamida bittadan umumta'lim maktabi faoliyati tashkil etish vazifasi belgilanayotgani negironligi bor bolalarning ta'lim olishidagi huquqlarining samarali ta'minlanishiga xizmat qilishi, shubhasiz. Qolaversa, dasturda uydah ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun qulayliklar yaratish maqsadida ular uchun ta'limning mazkur yo'nalishi bo'yicha elektron va videodarsliklar yaratish hamda ularga mustaqil shug'ullanishlari uchun qulay muhit va sharoitlar hozirlash vazifasi ham belgilanmoqda.

Loyihada belgilangan vazifalardan yana biri – xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquqi va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlashga katta e'tibor qaratilishidir. Jumladan, 2025-yilda 139 396 xotin-qizni kasbhunarga o'qitish, 220 980 nafarining ishga joylashishiga maqsadli, 134 400 nafarini tadbirkorlikka o'qitish choralarini ko'rish belgilanmoqda.

Shuningdek, joriy yilda yaqin qarindoshlar o'rtasidagi va erta nikohlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jonlantirish, sohaning huquqiy asosini takomillashtirish ishlari olib boriladi.

Davlat dasturi loyihasida beriladigan takliflar "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi keng ko'lami maqsad va vazifalarni joriy yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirishga xizmat qiladi. Demak, fuqarolarimiz, keng jamoatchilik dastur loyihasi muhokamasida faol ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir.

**Mavluda XO'JAYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari.**

HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Davlatimiz rahbarining Birlashgan Arab Amirliklariga rasmiy tashrifi doirasida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'taruvchi, mamlakatimiz uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar bo'lib o'tdi. Bu tashrif davomida imzolangan ko'plab strategik shartnomalar ikki davlatning kelajakdagi hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy, madaniy va texnologik sohalaridagi aloqalarni yanada kengaytiradi.

Xususan, O'zaro munosabatlarni strategik sherklik darajasiga ko'tarish to'g'risidagi deklaratsiya, Investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha, Moliyaviy-texnik hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitimlar ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan.

Shuningdek, Standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi, investitsiyalar, sanoat va ilg'or texnologiyalar, adliya, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi, foydali qazilmalar sohasidagi hamkorlik qilish to'g'risidagi idoralararo bitimlar ikki mamlakatning iqtisodiy va texnologik rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Madaniyat sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bayonoma va Diplomatik akademiyalar o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim madaniy va ilmiy almashinuvlarni ko'paytirishga yordam beradi. Bu esa ikki xalq o'rtasidagi do'stlik munosabatlarni yanada rivojlantiradi.

Umuman olganda, bu hujjatlar O'zbekistonning global miqyosda integratsiyalashuvi va xalqaro maydondagi mavqeiini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Bunday hamkorlik nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, madaniy va ilmiy sohalarida ham o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan e'tiborga molik.

Mazkur tarixiy tashrif xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik aloqalarining takomillashtirishida muhim qadam bo'ldi. Zero, yangi bosqichda rivojlanayotgan bu do'stona aloqalar amaliy mazmun bilan boyib borayotganidan har qancha faxrlansak arziydi.

**Zumrad BEKATOVA, Oliy Majlis Senati a'zosi.**

MUSHTARAK MAQSADLARGA ASOSLANGAN MANFAATLI SHERIKLIK

Fors ko'rfazi mintaqasidagi muhim hamkorlarimizdan bo'lgan Birlashgan Arab Amirliklari Global innovatsion indeks (dunyoda 32 o'rin) hamda barqaror rivojlanish bo'yicha turli xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallab kelayotgan eng innovatsion iqtisodiyotga ega davlat hisoblanadi. Mamlakatda 2030-yilgacha mo'ljallangan "BAA "yashil" kun tartibi" dasturi tasdiqlangan bo'lib, unda turli iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, energetika, suv resurslaridan foydalanish, transport tizimlari va shaharlarni rivojlantirish bo'yicha barqaror amaliyotlarni joriy etish orqali iqtisodiyotda ug'roddir neytralitligiga hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga erishish yuzasidan vazifa va maqsadli ko'rsatkichlar belgilab qo'yilgan.

BAA xalqaro maydonda ham barqaror rivojlanish bo'yicha davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, xususiy sektor hamda fuqarolik jamiyati institutlarining sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator tashabbuslarni ilgari surib kelmog'ga. "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" mana shunday muhim tashabbuslardan biri bo'lib, muqobil energetika yo'nalishida yetakchi bo'lgan "Masdar" kompaniyasi bilan hamkorlikda 2008-yildan buyon o'tkazib kelinadi.

Ushbu xalqaro platforma qator yillar davomida barqaror iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanish masalalarida dunyo yetakchilari, boshqa manfaatdor ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro fikr va tajriba almashish hamda yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu yil 14-yanvar kuni Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayonning taklifiga binoan "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" sammitida ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida so'nggi yillarda yangi O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishning resurslar tejamlorligiga asoslangan "yashil rivojlanish" modeliga o'tish yo'lida amalga oshirilayotgan muhim islohotlar va natijalar, mamlakatimizning xalqaro maydondagi tashabbuslari haqida to'xtalib o'tdi. Shu bilan birga, xalqaro hamjamiyatni, xorijiy "aql markazlari" hamda investirlarni yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lami "yashil"

transformatsiya jarayonlarida faol hamkorlikka chorladi.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda O'zbekistonda barqaror va innovatsion rivojlanish yo'lida muayyan ishlar bajarilmoqda. Xususan, 2017-yilda mamlakatimizda muqobil energetikaning umumiy generatsiyadagi ulushi 13 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2025-yil oxiriga borib bu ko'rsatkichni 26 foizga yetkazish rejalashtirilayotir. Ya'ni 7 yil ichida generatsiya ulushi deyarli ikki baravargacha oshirilayapti. 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 40 foizga yetkazish maqsad qilingan. Albatta, qisqa davr ichida bunday natijaga erishilishida xorijiy investitsiyalar, jumladan, Amirliklarning muqobil energetika sohasidagi "Masdar" va "AMEA Power" kabi yirik kompaniyalarining iqtisodiyotimizga kiritayotgan salmoqli sarmoyalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"Yashil" energetika sohasidagi va barqaror rivojlanishga qaratilgan bunday islohotlarning natijasi o'laroq, O'zbekiston BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi (Parij bitimi)ni amalga oshirish yuzasidan milliy miqyosda belgilanadigan hissa bo'yicha, ya'ni 2030-yilga qadar "issixona gazlari" ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10 foizga qisqartirishga qaratilgan dastlabki majburiyatini yangilab, ushbu ko'rsatkichni 35 foizga yetkazdi. Boshqacha aytganda, milliy miqyosda belgilanadigan hissa 25 foizga oshirildi. Holbuki, ayrim rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 10 – 15 foizga o'zgaragan xolos. Mana shuning

o'zi mamlakatimizda tarixan qisqa davr borilayotgan islohotlar mamlakatimizning innovatsion rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning natijasida O'zbekiston ketma-ket oxirgi 3 yil davomida Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Global innovatsion indeksida innovatsiya bo'yicha kutilganidan yuqori natija ko'rsatib kelayotgan davlat sifatida qayd etilyapti.

"Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" doirasida salohiyatli yoshlarimizning faol ishtiroki va hissasini ham alohida e'tirof etilgan diqqatga sazovor. Ya'ni Toshkent shahridagi Prezident maktabi o'quvchilari suvdan oqilona foydalanishga qaratilgan loyihalarni uchun barqaror rivojlanish bo'yicha Shayx Zoid nomidagi mukofotning "Global o'rta maktablar" nominatsiyasida g'olib deb topildi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihat. Mamlakatimizning "yashil" transformatsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda mushtarak maqsadga, barqaror rivojlanish borasida boy tajribaga ega, iqtisodiyotimizning innovatsion rivojlanishiga sarmoya kiritishdan manfaatdor bo'lgan davlatlar bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish biz uchun hayotiy zarurat hisoblanadi. Bu borada Birlashgan Arab Amirliklari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni davom ettirish va yanada kuchaytirishimiz ayni mudda'ir. Mamlakatimiz rahbarining BAAGA tashrifi doirasida o'tkazilgan ikki tomonlama uchrashuvlarda erishilgan siyosiy va iqtisodiy yo'nalishdagi muhim kelishuvlar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni strategik hamkorlik darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

**Umid YAKUBXODJAYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, yuridik fanlar doktori.**

"GENDER TENGLIK FAOLI" MILLIY TANLOVI G'OLIBLARI MA'LUM

Oliy Majlis Senatida "Gender tenglik faoli" milliy tanlovining respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu milliy tanlov Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tashabbusi bilan har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinmoqda. Uni tashkil etishdan asosiy maqsad – har bir tashkilotda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosatni shakllantirish, sohada amalga oshirilayotgan ilg'or tajribalarni aniqlash va ommalashtirish hamda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

E'tirof

Tadbirda ta'kidlanganidek, keyingi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda davlat boshqaruvi va jamiyatning barcha jabhasida faolligini kuchaytirish borasida keng ko'lami islohotlar hayotga tatbiq etilmog'ga. Ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalalari yangi tahrirdagi Konstitutsiya, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi kabi konseptual hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

eng faol respublika darajasidagi davlat organi" – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hududiy davlat organi" – Qorapog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tuman davlat organi" – "Ammofos-Maxam" aksiyadorlik jamiyati; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hududiy hokimlik" – Xorazm viloyati hokimligi; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tuman hokimligi" – Sharof Rashidov tumani hokimligi; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol nodavlat notijorat tashkilot" – O'zbekiston Milliy media birlashmasi hamda "Zakat" intellektual klubi" nodavlat notijorat tashkiloti; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tadbirkorlik subyekti" – "Akbarjon Barakat" mas'uliyati cheklangan jamiyati; "Gender tenglikni targ'ib qilishga qaratilgan eng yaxshi TV-dastur" – "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi "Yuridik klinika" ko'rsatuv; "Gender tenglikni targ'ib qilishga qaratilgan internetdagi eng yaxshi veb-sayt yoki portal" – "Oyina.uz" ma'naviy-ma'rifiy portali; "Gender tenglikni targ'ib qilishga qaratilgan eng yaxshi nashr" – "Yangi Sirdaryo" gazetasi.

Bu borada amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham keng e'tirof qilinmoqda. Xususan, Jahon banki indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etildi. Ochiq gender ma'lumotlar indeksida eng yaxshi 20 ta davlat qatoridan joy oldi. Gender tenglik va boshqaruv indeksida esa 103-o'rindan 51 pog'onaga ko'tarilib, 52-o'rinni egalladi. "Gender tenglik faoli" milliy tanlovda qatnashish uchun 934 ta hujjat taqdim etildi. Ular tanlov komissiyasi tomonidan nizom talabari asosida baholandi, 10 ta nominatsiya bo'yicha quyidagilar g'olib deb topildi: "Gender tenglikni ta'minlashda

eng faol respublika darajasidagi davlat organi" – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hududiy davlat organi" – Qorapog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tuman davlat organi" – "Ammofos-Maxam" aksiyadorlik jamiyati; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hududiy hokimlik" – Xorazm viloyati hokimligi; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tuman hokimligi" – Sharof Rashidov tumani hokimligi; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol nodavlat notijorat tashkilot" – O'zbekiston Milliy media birlashmasi hamda "Zakat" intellektual klubi" nodavlat notijorat tashkiloti; "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tadbirkorlik subyekti" – "Akbarjon Barakat" mas'uliyati cheklangan jamiyati; "Gender tenglikni targ'ib qilishga qaratilgan eng yaxshi TV-dastur" – "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi "Yuridik klinika" ko'rsatuv; "Gender tenglikni targ'ib qilishga qaratilgan internetdagi eng yaxshi veb-sayt yoki portal" – "Oyina.uz" ma'naviy-ma'rifiy portali; "Gender tenglikni targ'ib qilishga qaratilgan eng yaxshi nashr" – "Yangi Sirdaryo" gazetasi.

"Xalq so'zi".

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MASALASI – DOIMY E'TIBORDA

Seminar da kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan izchil islohotlar natijasida bugun minglab ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o'z o'rnini topayotgani, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy davlat tamoyili hayotda to'la-to'kis ro'yobga chiqayotgani alohida ta'kidlandi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasini Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida ham bu yo'nalishda muhim vazifalar belgilab qo'yilgan. Jumladan, joriy yilda 3,5 ming kambag'al oila farzandlarini tayyorlab, oliy ta'lim tashkilotlariga grant asosida qabul qilinishi belgilangan. Xalq vakillarining fikricha, bu ehtiyojmand oilalarda o'sayotgan minglab yoshlarning ta'limi, yorug' kelajagi uchun muhim poydevor yaratadi.

aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha katta marra olingani, ushbu maqsadlarga yo'naltirilgan mablag'larning samarali ishlatilishi va ajratiladigan yerlarni haqiqiy o'z egasiga topshirishda parlament nazorati shakllaridan samarali foydalanish lozimligini ta'kidlashdi.

Tadbirda ijtimoiy himoya milliy agentligi va qator mutasaddi vazirlik hamda idoralar vakillari tomonidan ushbu masalada olib borilayotgan ishlar va kelgusidagi rejalar haqida ham ma'lumotlar berildi. Aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni muhim vazifalar belgilab qo'yilgan. Jumladan, joriy yilda 3,5 ming kambag'al oila farzandlarini tayyorlab, oliy ta'lim tashkilotlariga grant asosida qabul qilinishi belgilangan. Xalq vakillarining fikricha, bu ehtiyojmand oilalarda o'sayotgan minglab yoshlarning ta'limi, yorug' kelajagi uchun muhim poydevor yaratadi.

Deputatlar "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 2025-yilda 1 milliardon ortiq

YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH ISHLARI QANDAY?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi tomonidan Yoshlar ishlari agentligining "Mamlakatimizda yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, ularning bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ta'kidlab o'tilganidek, keyingi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilib, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, orzu-intilishlari va salohiyatini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'tgan davrda yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha huquqiy

baza mustahkamlanib, ular hayotiga bevosita taalluqli bo'lgan qonun, Farmon va qarorlar qabul qilingani barkamol avlodni tarbiyalashda zamin bo'lib xizmat qilayotir. Xususan, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan fuqarobay ishlash natijasida 138 ming nafar ishsiz yosh aniqlanib, ularning mahalla – sektor – tuman

GLOBAL EKOLOGIK TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHDA MUHIM ASOS

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi qizg'in muhokama etildi.

Qayd etilganidek, davlat dasturi loyihasida belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar O'zbekistonda global ekologik tahdidlarga qarshi kurashishning o'ziga xos platformasi yaratilayotganini namoyon qiladi.

Dastur loyihasida yil nomidan kelib chiqib, atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan. Xususan, 32 ta shaharda aholi punktlarida piyoda va velosipedda sayr qiladigan "Soyali sayr ko'chalari" tarmog'ini yaratish, 64 ta mahallada tajriba tariqasida yomg'ir va oqova suvlardan samarali foydalanish, mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali sug'orish tizimini joriy qilish belgilangan.

Deputatlar qayd etganidek, "Bir million "yashil" oila" harakati yo'lga quyilib, yurish va yugurish, "yashil" transportda harakatlanish, oziq-ovqat isrofgarchiligining oldini olish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish targ'ib qilinadi. Bunda "yashil" fuqaro, "yashil" oila, "yashil" mahalla talablari belgilanadi va har biri uchun alohida qo'llab-quvvatlash choralari ta'kidlanadi.

Yig'ilishda qo'mita huruzidagi jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan davlat dasturi loyihasida mamlakatimiz yashil rivojlanishining ustuvor yondashuvlari, tarmoq va sohalarining uyg'un "yashil" transformatsiyasini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi, resurs tejamlorligini ta'minlash, iqlim o'zgarishiga moslashish, uning oqibatlarini yumshatish hamda aholining farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilangan qayd etildi.

Bundan tashqari, uch yil muddatga O'zbekiston Respublikasi hududida uv qilishga moratoriy joriy qilinadi, ovchilarga muqobil mashg'ulot sifatida barcha hududda maxsus poligonlarda

Shuningdek, yig'ilishda deputatlarining davlat dasturi loyihasi muhokamalarida hamda unda belgilangan vazifalar, chora-tadbirlarning ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etishi ta'kidlandi. Yaxunda davlat dasturi loyihasi mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, uni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflarni berish borasida qo'mita oldida turgan vazifalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

(shahar) – viloyat kesimida ro'yxatlari shakllantirildi, Yoshlar bandlik dasturlari ishlab chiqildi. Natijada bugungi kungacha qadar 137,8 ming nafar yoshning bandligi ta'minlandi.

Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda "yoshlar haftaligi" platformasi orqali "mahalla etiligi" tavsiyasi asosida yordam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi. Natijada "yoshlar haftaligi"ga kiritilgan 169 846 nafar yoshga "Yoshlar haftaligi" jamg'armasidan 345 mlrd. so'm miqdordagi mablag'lar ajratilgan.

Eshituvda qayd etilganidek, respublika

Qo'mita eshituvda deputatlar yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan bir qator taklif hamda tavsiyalar berishdi. Shundan so'ng kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi va tegishli qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".



## Gidroenergetika:

# mikroGESlar salmog'i tubdan oshadi

## BU BORADA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI AYNI MUDDAO

Keyingi yillarda jahon energetikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan, kichik gidroelektrostansiya (mikroGES)larning o'rniga tobora ortib bormoqda. Mamlakatimiz esa gidroenergetika salohiyatiga boy o'lka sifatida mikroGESlarni rivojlantirish orqali energiya ta'minotini diversifikatsiyalash, ekologik toza energiya ishlab chiqarishni ko'paytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkoniyatiga ega.

### Nuqtai nazar

Shu bois zamonaviy taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekistonda keng ko'lami islohotlar qatorida iqtisodiyotning muhim quvvat manbai hisoblangan gidroenergetika tarmog'i ham yildan-yilga izchil tarzda rivojlanib bormoqda. Oxirgi yillarda yangi gidroelektrostansiyalar qurish, uzoq yillardan buyon ishlab kelayotganlarini zamon talablariga asosida modernizatsiya qilish ishlari yuqori sur'atlarda amalga oshirilmoqda.

Tahsilarga ko'ra bugungi kunda yurtimizda 400 dan ortiq kichik darayolar va soylar mavjud bo'lib, ularning aksariyati mikroGESlar qurish uchun qulay hisoblanadi. Ayni paytda O'zbekistonda 70 dan ortiq GESlar faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiy quvvati qariyb 2500 MVtni tashkil etadi.

Prezidentimiz o'tgan yil dekabr oyida Ugom darajasidagi kichik GES faoliyatini bilan tanishganida mamlakat bo'ylab ikki mingtagacha kichik hamda mikroGESlar qurish imkonligini ta'kidlagan edi. MikroGESlarning aksariyatini tog'li va uzoq hududlarda joylashtirish imkoniyati, o'z navbatida, shu hududdagi mahalliy aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Aytish kerakki, 2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiyasiga muvofiq, mikroGESlarning ulushini energiya balansida sezilarli darajada oshirish rejalashtirilgan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish, investirlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, kadrlar tayyorlash shular jumlasidandir.

### Xalqaro tajriba va milliy amaliyot

Geografik joylashuviga ko'ra O'zbekistonga o'xshash iqlim sharoitlariga ega bo'lgan davlatlarning yangi turdagi mikroGESni ishga tushirish hamda ularidan samarali foydalanish bo'yicha to'plagan tajribasi, albatta, biz uchun ham qiziqarli. Bunday davlatlarning mikroGESlarni qurish va ularidan foydalanish jarayonida duch kelgan muammolari hamda ularni hal etish yo'llari mamlakatimiz uchun foydali bo'lishi mumkin.

Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, Qirg'iziston kichik va

integratsiyalashtirish O'zbekiston uchun o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

Eron mamlakati tog'li relief va quruq iqlimga ega bo'lib, mikroGESlardan mahalliy aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun faol foydalanadi. Bu davlatda 300 dan ortiq kichik gidroelektrostansiyalar mavjud bo'lib, ularning umumiy quvvati 30 MVtdan iborat.

Muqobil energiyadan foydalanish borasidagi faol mamlakatlarga Shveysariya, Yaponiya, Norvegiya davlatlarini ham kiritish mumkin. Deylik, birgina Norvegiya suv energiyasidan foydalanish bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. Kichik gidroelektrostansiyalar qurish uchun energiya ta'minotining ekologik toza manbai hisoblanib, mamlakatning "yashil" energiya siyosatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu davlatdagi jami gidroelektrostansiyalar yiliga o'rtacha 2 mrd. kVt-soatdan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega.

### Sohadagi muammolar va ularning yechimi

Ta'kidlash joizki, kichik gidroelektrostansiyalardan foydalanishni rivojlantirish jarayonida turli muammolar yuzaga kelishi mumkin va bular bir qator omillarga bog'liq. Ular texnik, moliyaviy, huquqiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Har bir sohadagi muammolar mikroGESlarni qurish va ularidan samarali foydalanish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, kichik GESlarning samaradorligi ularning suv oqimi, uskunalar sifatligi hamda havo-iqlim sharoitiga bog'liq. Zamonaviy texnologiyalar yetishmasligi yoki mavjud suv resurslarining mavsumiyligi texnik to'siqlarni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi omillar ishlab chiqariladigan elektr energiyasining hajmi, qurilish va foydalanish xarajatlari, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi narxini belgilaydi.

Bundan tashqari, mikroGESlarning iqtisodiy natijadorligi gidroelektr sharoitlardan tortib qurilish va foydalanish xarajatlari, shuningdek, energiya narxigacha bo'lgan ko'plab omillarga bog'liq. Samarali model yaratish uchun har bir omilni inobatga olish hamda yaxshi rejalashtirish zarur. Kichik gidroelektrostansiyalardan maksimal iqtisodiy foyda olish uchun suv resurslarini oqilona ishlatish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va davlat qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston kichik gidroelektrostansiyalarni rivojlantirish bo'yicha katta salohiyatga ega bo'lsa-da, ularni loyihalash, qurish va samarali foydalanish borasidagi texnik murakkabligi bilan alohida

ajralib turadi. Bu, ayniqsa, tog'li hamda uzoq hududlarda joylashgan loyihalar uchun dolzarbdir. Shuningdek, bunday muqobil energiya manbalari qurilishi va ishlab chiqarilishi, jumladan, suv ekotizimlariga, baliqlarning migratsiyasiga hamda landshaftga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yangi loyihalarni amalga oshirishda ekologik talablarga qat'iy rioya qilish, zamonaviy mikroGESlar modellaridan (baliqlar migratsiyasi uchun xavfsiz) foydalanish, atrof-muhitga ta'sirini baholash va kamaytirish choralarini ko'rish zarur. Ya'ni kichik gidroelektrostansiyalarni loyihalash, qurish va ularidan foydalanish uchun malakali muhandislar, texnik xodimlar hamda boshqa mutaxassislarni jalb etish lozim.

Alohida ta'kid shuki, loyihalarni amalga oshirishdan oldin mahalliy aholi bilan kelishuvlar, ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish, ularning manfaatlarini hisobga olish va loyihadan foyda ko'rish imkoniyatlarini yaratish ("Quyoshli xonadon" dasturiga o'xshash "mikroGESli xonadon" dasturlarini ishlab chiqish) ham maqsadga muvofiq. Ushbu muammolar yechimiga kompleks yondashuv, jumladan, mikroGES butlovchi qismlarini mahalliy lashtirish, mahalliy mikroGES ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, qonunchilik bazasini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, kadrlar tayyorlash va mahalliy aholi bilan hamkorlik qilish zarur bo'ladi.

Yana bir muhim masala, oliy o'quv yurtlarida hamda kasb-hunar kollejlarda tegishli mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va malaka oshirish kurslarini muntazam tashkil etish har tomonlama foydalidir.

### Kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar

Shu o'rinda, davlatimiz rahbari raisligida qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalari oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishidagi vazifalarga ham to'xtalib o'tish joiz. Unda Prezidentimiz yurtimiz hududlarida 2 mingtagacha mikroGES qurish orqali yiliga qo'shimcha 600 mln. kVt-soat elektr energiyasi olish imkonligini asoslab

Hududdagi suv resurslaridan foydalanishning ushbu innovatsion yondashuvi mintaqaning kelajagi uchun muhim qadam hisoblanadi. Bunday tashabbuslar ekologiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo'shishi bilan ahamiyatlidir.

**Bahodir MIRZAYEV,**  
«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti»  
milliy tadqiqot universiteti rektori,  
texnika fanlari doktori, professor.

## YANGILIKLAR xabarlar

### TAFSILOTLAR

## O'zbek allomasi nomidagi sun'iy yo'ldosh koinotni zabt etdi

"Fergani Space" kompaniyasining birinchi sun'iy yo'ldoshi koinotga uchirildi.



Xabarlarda qayd etilishicha, ushbu qurilmaga buyuk astronom, matematik va geograf olim – Ahmad Farg'oniylar sharafiga "Fergani" nomi berildi.

Kompaniyaning "FGN-100-d1" deb nomlangan birinchi sun'iy yo'ldoshi "SpaceX" kompaniyasiga tegishli "Falcon-9" raketa-tashuvchisi orqali AQSHning Vandenberg bazasidan koinotga muvaffaqiyatli parvozi amalga oshirildi.

"FGN-100-d1" yo'ldoshi "Falcon-9" raketasi orqali "Transporter-12" missiyasi doirasida uchirildi. Ushbu missiyada 131 ta foydali yuk, jumladan, parvozni onlayn uzatuvchi vosita, mikro sun'iy yo'ldoshlar va orbitadagi transport vositalari kosmosga yetkazildi.

"Fergani Space" kompaniyasi o'zining innovativ va original texnologiyalari orqali kosmik transport hamda past orbital yo'ldosh xizmatlari yo'nalishida barqaror va iqtisodiy jihatdan samarali yechimlarni taqdim etishni maqsad qilgan.

Mazkur kompaniya rahbari "Baykar" kompaniyasi boshqaruv kengashi raisi Selchuk Bayraktar hisoblanadi.

## Raqamlashtirish sohasida erishilgan yutuqlar

*Ichki ishlar organlarining faoliyatiga raqamli va axborot texnologiyalarini joriy etish, aholiga elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar olib borilayapti.*

Bu haqda Ichki ishlar vazirligida raqamlashtirish sohasida bajarilgan ishlar va erishilgan yutuqlarga bag'ishlangan o'quv-amaliy videoseminarda alohida ta'kidlandi.

Tadbirda Ichki ishlar vazirligi Axborot texnologiyalari, aloqa va axborotni himoyalash boshqarmasi, Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar bosh markazi hamda "Xavfsiz shahar" tizimining rivojlantirish markazi davlat muassasasi tomonidan tayyorlangan taqdimotlar namoyish etildi.

Xususan, "Xavfsiz shahar" tizimining Yagona apparat-dasturiy platformasi va uning imkoniyatlari taqdimotida "Loyihalar monitoring" dasturiy ta'minoti yaratilgani va u yordamida "Xavfsiz shahar" konsepsiyasi doirasida mamlakat miqyosidagi loyihalarning manzilli yillik dasturlari ijrosi, amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar rejalarini va ularning bajarilish holatlarini nazorat ko'rsatib berildi.

## Zaruriy ehtiyot qismlar o'zimizda ishlab chiqariladi



*Sirdaryo IESda mahalliy lashtirish dasturi asosida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini kengaytirish hamda asosiy va yordamchi teplomexanik uskunalarining ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish maqsadida zamonaviy dastgohlar o'rnatildi.*

Zarur ehtiyot qismlarni stansiyaning o'zida ishlab chiqarish maqsadida Xitoy davlatidan yangi raqamlashtirilgan 12 ta dastgoh keltirilgan bo'lib, ular to'liq avtomatik rejimda ishlaydi. Ushbu uskunalar orqali tayyorlanayotgan ehtiyot qismlarning sifat darajasi hamda ish samaradorligi ta'minlanmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra o'tgan yil uchun 1 mrd. 183,0 mln. so'mlik Mahalliy lashtirish dasturi doirasida 34 ta mahsulot turi bo'yicha 1 mrd. 042 mln. so'mlik reja belgilangan.

Shuningdek, bugungi kunda Sirdaryo IESda 2025-yil uchun Mahalliy lashtirish dasturi doirasida 34 ta mahsulot turi bo'yicha 1 mrd. 042 mln. so'mlik reja belgilangan. Hozirda "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ tizim korxonalarini uchun yana 16 ta mahsulot turi bo'yicha 2 mrd. 396,0 mln. so'mlik mahalliy lashtirish yo'nalishidagi ishlar olib borilmoqda.

"Xalq so'zi".

# ISLOHOTLAR TAQDIRIGA DAXLDORLIK HISSI

Poytaxtimizda "Taraqqiyot strategiyasi" markazi tomonidan BMTning mamlakatimizdagi doimiy koordinatori ofisi bilan hamkorlikda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasining

xalqaro hamjamiyat bilan jamoatchilik muhokamasi tashkil etildi.

Unda 200 dan ziyod ekspertlar, xususan, Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, vazirlik va idoralar mas'ul xodimlari hamda diplomatik

korpus va xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari rahbarlari, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti vakillari ishtirok etdi.

### Tadbir

So'nggi yillarda O'zbekistonda qabul qilinayotgan muhim hujjatlar, ayniqsa, mamlakatimiz taraqqiyotiga bevosita daxidor strategik hujjatlar loyihalarni tayyorlashda keng jamoatchilik, shuningdek, xorijiy ekspertlar va xalqaro hamjamiyatning fikr-mulohazalarini o'rganishga ahamiyat qaratilayapti. Muhokamalar jarayonida davlat dasturi loyihasida belgilanayotgan chora-tadbirlar va vazifalar bugungi globallashuv jarayonida yangi O'zbekistonning xalq farovonligi, tinchligi, demokratiya va inson huquqlari kafolatini ta'minlaydigan erkin jamiyat va adolati davlat qurishga qaratilgan konseptual hujjat ekanligi ta'kidlandi.

### Eldor TULYAKOV, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi ijrochi direktori:

– Joriy yilgi davlat dasturi loyihasida 295 ta amaliy chora-tadbir, 87 ta normativ-huquqiy hujjat, 269 ta maqsadli ko'rsatkich belgilanishi nazarda tutilmoqda.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasini Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi 2025-yil 8-yanvardan boshlab "Taraqqiyot strategiyasi" markazining maxsus "www.uzbekistan2030.uz" portaliga keng jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirildi. Ushbu portal orqali aholiga strategiya va davlat dasturi ijrosi, shuningdek, har bir maqsad va ko'rsatkichlar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini qoldirish hamda takliflarini bildirish imkoniyati yaratilgan. Hozirgi kunga qadar loyiha yuzasidan xalqimiz tomonidan portalgacha 3 mingdan ortiq takliflar kelib tushdi.

Bundan ham ko'rinib turibdiki, hamyurtlarimiz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar taqdiriga befarq emas. Ular davlat dasturi loyihasi muhokamasida faol ishtirok etib, yurtimiz obodligi, xalqimiz farovonligini ta'minlash, yangi

### So'z – anjuman ishtirokchilari

O'zbekistonni barpo qilish yo'lida yana qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozimligi xususida fikr-mulohazalarini, taklif-tavsiyalarini bildirmoqda.

Tadbir davomida loyihaning bandlarida belgilanayotgan vazifalarni takomillashtirishda xalqaro ekspertlarning fikr-mulohazalari e'tiborga olindi. Shuningdek, 2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturi loyihasini jamoatchilik, shu jumladan, xalqaro hamjamiyat vakillari bilan muhokama qilish orqali uni takomillashtirish, xalqchilligini oshirish va hujjatning xalqaro standartlarga to'liq mos kelishini ta'minlashga qaratilganini alohida ta'kidlash joiz.

### Sabina MAXL, BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori:

– "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmon loyihasida atrof-muhitni asrash, ekologik vaziyatni yaxshilash, "yashil" energiyani rivojlantirish masalalariga keng o'rin berilgan. O'ylaymanki, bu keng qamrovli dastur O'zbekiston rahbariyatining mamlakatni har tomonlama rivojlantirish borasidagi intilishlarining

tasdig'idir. Bu orqali O'zbekiston BMTning 2030-yilgacha global kun tartibiga kiritilgan muhim masalalar, ya'ni butun insoniyat hayoti va farovonligi darajasini ko'tarish, dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali adolati va barqaror jamiyat qurish bo'yicha keng ko'lami islohotlarni amalga oshirib, sezilarli natijalarga erishmoqda.

Bugungi tadbirda o'z takliflarimizni bildirdik. Eng avvalo, davlat dasturi qabul qilinganidan so'ng ijrosi ta'minlanishi, u qisqa muddatli jarayonga aylanib qolmasligi kerak. Ikkinchidan, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hozirgidek ochiqlik ta'minlansa, xalqning davlat hokimiyati organlariga ishonchi yanada ortadi.

"Xalq so'zi".

# YURTNING KUCHI – BIRLIKDA, QADRI ESA TINCHLIKDADIR!



Эъзо



Minibika XAYRULINA, Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi "Ibrat" mahalla fuqarolar yig'iniida istiqomat qiluvchi mehnat faxriysi:

– Mana, Yangi yil kirib kelishi bilan umrimning ikkinchi asri boshlandi. Halol mehnat, yaxshi niyat hamrohligi tufayli shu yoshga yetish nasib etdi, deb o'ylayman. Umrim davomida ko'p qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri keldi.

Shunday davrlar bo'ldiki, bir burda non topish uchun ertadan kechgacha ter to'kish talab qilindi. Inson yaxshi yashashi uchun nima kerak? Nazarimda, xotirjam yashash uchun, avvalo, tinch va osoyishta hayot kerak. Ming shukri, bugun ana shunday dorilamon kunlar ro'yobini ko'rish nasib qildi. Televizor orqali ko'ryapimiz: dunyoning turli joylarida talato'p, notinch hayot hukmron. Davlatimiz

**Xalqimizning asl qadriyatlaridan biri yoshi ulug' insonlarni davranning to'riga o'tkazish, ularning mo'tabar so'zlarini e'tibor bilan tinglashdir. "Qarisi bor uning parisi bor" degan hikmat asrlar sinovidan o'tgan. Yangi O'zbekistonning shahdam odimlari, keng qamrovli islohotlar ko'pni ko'rgan yurtodoshlarimiz tomonidan munosib baholanyapti. Keling, ularning so'zlariga quloq tutaylik.**

Otaboy MATYOQUBOV, Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi Shodlik mahallasi mehnat faxriysi:

– Yaqinda yangi yil kirib kelayotgan daqiqalarda xonadonimiz har qachongidan gavjum ko'rinish oldi. Hammaning yuz-kozida tabassum, shu kunlarga yetib

kelganlikdan quvonch aks etardi. Men umr yo'ldoshim Onabibi bilan farzandlar, nabiralalar, chevaralarni shodumon qarshi oldik. "Bizga ham sizlarning yoshingizni bersin!" degan niyat qayta-qayta izhor etildi. O'zim 103 yoshga, kampirim 89 yoshga to'lganligi butun oilada o'zgacha nishonlandi. Shu dorilamon daqiqalarda beixtirov bir asrlik hayotimda bosib o'tilgan baland-past yo'llar biz ko'rdimda jonlandi. Faqat ezgu niyatda turmush kechirganimiz uchun Yaratgan bizga uzoq umrni

hadya etgan deb o'ylayman. O'zbekistonimizda tarkib topgan bugungi muhit hamisha ezgu niyat bilan yashayotgan inson hayoti fayz-barakali, havas qiladigan darajada kechayotgani oilamiz misolida yaqqol namoyin bo'lmoqda. Yangi yil arafasida to'kin dasturxon atrofida o'tirarkanmiz, umr yo'ldoshim bilan farzandlarimiz, nabirachevaralarimizga bugungi farovon, tinch-osoyishta zamonning qadriga yetishni nasihat qildik. Ilohim, xalqimizning ezgu niyati – uchinchi Rennessans paydovorini ko'rish bizga ham nasib etsin!

Soliha NOROVA, Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi Yuqori Mirishkor qishlog'i mehnat faxriysi:

– Men alloma bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino tavallud topgan qishloqqa yondosh hududda istiqomat qilaman va bundan faxrlanam. Albatta, shonli o'tmish bilan faxrlanish yaxshi, ammo ayni paytda bugungi avlod ulug' ajdodlarimizga munosib bo'lib, iste'dod kamoloti uchun barcha sharoit yaratilgan ona yurtimizda yanada olg'a qadam tashlab, o'qib-izlanishni, bir dam bo'lsa-da, susaytirmasligi zarur, deb o'ylayman. Tarix shohid: zahmatli mehnat o'z mevasini bermay qolmaydi, albatta. O'zbekiston nomi jahon hamjamiyati uza baralla yangramoqda. Sportchilarimiz, xalqaro fan olimpiadalarida navqiron yigit-

qizlarimiz yuksak marralarni egallashyapti. Xususan, kuni kecha Birlashgan Arab Amirliklarida Toshkentdagi Prezident maktabi o'quvchilari nufuzli mukofotni qo'lga kiritgani qalbimizni quvonchga to'ldirdi! Yaqinda 102 yoshga kirdim. Shu munosabat bilan qarindoshlar, mahalladoshlar xonadonimizda jamuljam bo'lishdi. Ne tongki, to'ng'ich qizim Halima 75 yoshga yetib, u ham duogo'y lari safidan joy oldi. Bizning yoshlarga nasihatimiz shu: bu yorug' dunyoda halol mehnat bilan topilgan non shirin bo'ladi. Mehnatdan qochmang, ahlil va inoq hayot kechiring. Ana shunda hech kimdan kam bo'lmasiz. O'zbekistonning chinakam farzandi sifatida qadr topasiz!

"Xalq so'zi".



## O'ZBEKISTON BILYARD SPORTI FEDERATSIYASI – IPC A'ZOSI

Xalqaro piramida konfederatsiyasi (IPC)ning yil yakunlari va 2025-yil rejalariga bag'ishlangan yig'ilishida O'zbekiston bilyard sporti federatsiyasi ushbu tashkilotning to'laqonli a'zoligiga qabul qilindi.



Bu o'zbekistonlik bilyardchilarga xalqaro standartlar hamda qoidalaridan foydalanish, bilyardning ushbu yo'nalishida o'tadigan jahon chempionatlari va boshqa xalqaro musobaqalarda qatnashish huquqini taqdim etadi. Shuningdek, IPCga a'zolik

O'zbekistonda bilyardning piramida yo'nalishi bo'yicha xalqaro turnirlarni tashkil qilish, qolaversa, trenerlar, hakamlar hamda sportchilar uchun o'quv dasturlari va metodik materiallarga kirish imkoniyatini bermoqda.

## YANA BIR NUFUZLI MUSOBAQA

Joriy hafta yakunida qilichbozlarimizni yana bir nufuzli musobaqa kutib turibdi. Jumladan, 17 – 19-yanvar kunlari Bahrayn poytaxti Manama shahrida shpaga yo'nalishi bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon kubogi bosqichi bo'lib o'tadi.

Kecha mazkur turnirda qatnashadigan o'zbekistonlik qilichbozlar Manama ga jo'nab ketishdi. Musobaqada 10 nafar hamyurtimiz (yigitlar – Saidilol Alimov, Vadim Bagautdinov, Ahmadjon Fayziyev, Asilbek Ibodullayev, Meyrixan Timurov, Iskandar Turishev, Ozodbek Zaynobiddinov, qizlar – Aziza Hamidova, Dilnoz Murzatayeva, Sanam Nazarova) medallar uchun kurash olib boradi.

## MILLIY FUTBOL MARKAZI QURILMOQDA

Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida o'zbek sportidagi yana bir yirik bunyodkorlik loyihasi – Milliy futbol markazi qurilmoqda.



Markaz hududida 280 kishiga mo'ljallangan zamonaviy mehmonxona, Futbol mutaxassislarini tayyorlash va ilmiy-tadqiqot markazi, milliy terma jamoalar bazasi, Respublika futbol akademiyasi, Sport tibbiyoti va reabilitatsiya markazi kabi obyektlar faoliyat olib borishi ko'zda tutilgan. Muhimi, qurilish jarayonida sifatlilik materiallardan foydalanishga alohida ahamiyat qaratilayotir.

Bu haqda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi hamda Milliy olimpiya qo'mitasi rahbariyati mazkur markaz qurilishi jarayoni bilan tanishish davomida ma'lum qildi.

## MUKOFOT JAMG'ARMASI 50 MING AQSH DOLLARI

Mamlakatimizda yana bir yirik shaxmat turniri tashkil etiladi. Bu haqda O'zbekiston shaxmat federatsiyasi ma'lum qildi.

Unga ko'ra Samarqand shahrida ayollar o'rtasida o'tkaziladigan umumiy sovrin jamg'armasi 50 ming AQSH dollaridan iborat "Women's Chess Championship 2025" xalqaro turniriga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborilgan. Mazkur musobaqa kelgusi yili qadimiy shaharda bo'ladigan 46-Butonjahon shaxmat olimpiadasiga tayyorgarlik vazifasini o'taydi.

Shu yilning 8 – 19-mart kunlari o'tadigan ushbu turnir nafaqat shaxmat ixlosmandlari, balki global sport, bilim va tenglikni targ'ib qiluvchi muhim tadbir sifatida Xalqaro shaxmat federatsiyasining kommunikatsiya tizimlari orqali butun dunyoga namoyish etiladi. Musobaqada qatnashadigan shaxmatchi ayollar ro'yxati 25-fevralga qadar tashkiliy qo'mita tomonidan shakllantiriladi.

"Xalq so'zi".

"Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarini tahririyati jamoasi tahririyat xodimi Xudoyor Joniyevga otasi **Zokir JONIYEVning** vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

## QOIDABUZARLIKLARNI ANIQLASHNING ZAMONAVIY USULI

"O'zbekkosmos" agentligi 2019-yildan buyon kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar sohasida faoliyat olib bormoqda. Birgina 2024-yilda aerokosmik texnologiyalarni qo'llagan holda Davlat kosmik monitoring tizimi orqali ekologiya, geologiya, yer munosabatlari yo'nalishlari, qishloq, suv va o'rmon xo'jaliklari kabi tarmoqlar tahlil qilinib, 100 mingdan ortiq qonunbuzilish holatlari aniqlandi.

### Anjuman

Ayniqsa, agentlik muassisligidagi Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazi tomonidan yer munosabatlari yo'nalishida olib borilgan kuzatuv ishlari orqali o'zboshimchalik bilan qurilgan 96 312 ta bino-inshoot mavjudligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, kosmik suratlarni qayta ishlash natijasida geologiya yo'nalishida respublika bo'yicha 2 426 ta noqonuniy karyer va qazib olish ishlari olib borilayotgan 2 543 gektar maydon fosh etildi.

Davlat kosmik monitoringi mamlakatimizdagi 12 ta hududning qariyb 721 gektar maydonida 1 928 ta noqonuniy chiqindixonalar borligini ko'rsatdi. Taassufki, bu kabi noqonuniy chiqindi poligonlarining tashkil etilishi, avvalo, atrof-muhit va ekologiya salbiy ta'sir o'tkazib, tuproq, suv va havo sifatining buzilishiga olib keladi. Qolaversa, zararli hasharotlar ko'payishi, yuqumli kasalliklarning o'tishi, insonlarda o'pka saratoni va nafas olish nuqsonlarining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, agentlik atrof-muhit hamda yer unumdorligiga yetkazilayotgan zararlarni aniqlash va oldini olish maqsadida kosmik monitoring orqali Surxondaryo, Toshkent, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlarida 2024-yilning iyun-iyul oylarida boshqoqli don ekinlaridan bo'shagan 31 483,2 gektar maydonda somon poyalari



va qoldiqlari yondirilishi bilan bog'liq 2 266 ta holatni qayd etdi.

Davlat kosmik monitoringining so'nggi va eng muhim yo'nalishi – bu, albatta, suv xo'jaligi hisoblanadi. 2024-yilda 35 ta suv ombori kesimida suv omborlarining loyqa oqiziqilar bilan to'lib borish dinamikasi va suv sathi rejimini monitoring qilish hamda suvni muhofaza etish zonalarida noqonuniy bino va inshootlar qurilishi holatlarini aniqlash ishlari amalga oshirildi. Unga ko'ra 35 ta suv ombori kesimida kosmik monitoring o'tkazilib, ularning muhofaza zonalarida o'zboshimchalik bilan qurilgan 122 ta inshoot aniqlandi.

Agentlik rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida bu haqda OAV vakillariga batafsil ma'lumot berildi.

F. XUDOYBERDIYEV ("Xalq so'zi").

## Qulay shahar muhitini yaratishga yangicha yondashuv

Samarqandda shaharni barqaror rivojlantirishga qaratilgan ekologik "master-reja" tasdiqlandi. Bu bo'yicha xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi qarori qabul qilindi.

### Ekologiya

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Iqlim o'zgarishi milliy markazi va Samarqand shahar hokimligi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu strategik reja atrof-muhitni boshqarishni takomillashtirish, qulay shahar muhitini yaratish va mintaqaning iqlim o'zgarishiga chidamlilikini kuchaytirishga

qaratilgan. Vazirlik ma'lumotiga ko'ra, Samarqand shahridagi yashil maydonlarning ulushi har 100 ming aholiga 21,4 foizni tashkil etadi. "Master-reja"ga yangi bog'lar yaratish va qurg'oqchilikka chidamli ko'chat ekish loyihalari kiritilgan. Qolaversa, havo sifatini yaxshilash uchun jamoat transportini modernizatsiya qilish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va sanoat obyektlarini

modernizatsiyalash rejalashtirilgan. Shaharda har yili 219 ming tonna chiqindi hosil bo'ladi, umumiy hajmining 1 foizdan kamrogi qayta ishlanadi. "Master-reja" doirasida yangi ekologik chiqindi poligoni yaratilib, chiqindilarni ajratish tizimi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, shahar suv ta'minoti tizimida suv yo'qotishlarini qisqartirish uchun infratuzilmani modernizatsiyalash, suvni tozalash tizimlarini takomillashtirish va tejamkor texnologiyalarni joriy etish ko'zda tutilgan.

"Xalq so'zi".

## Tahririyat pochtasidan

Olisdagi maktabga qatnab o'qish ham bir balo. Ota-ona bolasini serqatnov yo'ldan o'tkazib qo'ygach, darslar tugab to u yug'a kirib kelguncha yurak hovuchlab o'tiradi. Chindan, odamlarning bu xavotiri bejiz emas. Masalan, Parkent tumanidagi "Samarobod" MFYda serqatnov yo'lda bolalar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari ham sodir bo'lib turibdi. Mahallada maxsus ajratilgan yer boru maktab qurish haqida berilgan va dalar uzoq yillardan buyon bajarilmay kelyapti.

## OLISDAGI MAKTAB, SERQATNOV YO'L VA 30 YILLIK ESKI GAP...

Bu haqda "Xalq so'zi" gazetasi 2024-yil 26-noyabr sonida "Va dalar qo'sha-qo'sha, vaziyat o'sha-o'sha" nomli tanqidiy maqola chop etilgan edi. Maqola yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati boshlig'i o'rinbosari E. Bozorov imzosi bilan javob xati oldik.

Unda keltirilishicha, hozirgi

## ВАЪДАЛАР ҚЎША-ҚЎША, ВАЗИЯТ ҲАҚИДА...

Икки Паркент туманидаги Самаробод кичикда мактаб учун асраб келинаётган 2 гектар ерда нега 30 йилдан бунён қуриш бўшланмаётти?

Ким бу ернинг йиллардан берилган ваъдаларини эсимизга қайтариб берсин? Бу ернинг эҳтисоти ваъдаларини эсимизга қайтариб берсин? Бу ернинг эҳтисоти ваъдаларини эсимизга қайтариб берсин? Бу ернинг эҳтисоти ваъдаларини эсимизга қайтариб берсин?

Анчак, аммо очик гаплар

Ota-onalarning kuzurini yulda... kunda "Samarobod" MFYdan 305 nafar o'quvchi "D-015" avtomobil yo'lining 53-kilometrida poydalar uchun tartibga solingan o'tish joyi orqali harakatlanib, 500 metr ichki ko'chadagi 43-umumta'lim maktabiga qatnaydi. Tezlik bilan bog'liq va poydalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida ushbu yo'lning 54-kilometriga maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish vositasi o'rnatilgan...

Xullas, vazirlik o'z vakolati

"Xalq so'zi".

## Namangan viloyatining Davlatobod tumanida "Vatanparvarlar bog'i" majmuasi ochildi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-142. 12 830 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir N. Ostonov.  
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 20.50 Topshirildi — 23.55 1 2 3 4 5 6